HOSILA MAVZUSINI O`QITISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLARNING AHAMIYATI

Qurbonova Halimaxon
Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti qoshidagi akademik litsey

Annotatsiya
Ushbu maqolada innovatsion va pedagogik texnologiyalarning ta’lim jarayonida tutgan o‘rni haqida ba’zi mulohazalar yoritilgan. Matematika kursida “Hosila” mavzusini yoritishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish usullari haqida ma’lumot berilgan. Maqolada ushbu fanni o‘qitishning o`ziga xos tomonlariga ham to‘xtalib o‘tilgan. Darslarda AKTdan foydalanishning qulayliklari keltirilgan.

Kalit so‘zlar
Hosila, axborot kommunikatsion texnologiyalar, matematika, metod, masala.

KIRISH

Bugungi fan va texnika ilg‘or rivojlanib borayotgan bir vaqtda mashg‘ulotlar jarayonida ta’lim berishning ilg‘or usullaridan foydalanishning samaradorligi haqida juda ko‘p fikrlar bildirilyapti. Turli xil ta’lim dasturlari, baholash usullari bugungi ta’lim tizimimizga kirib kelgani ham bejizga emas.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ulkan iqtisodiy o‘sish ko‘rsatkichlariga erishilayotganligi sababli barcha sohalarda malakali kadrlar va yetuk mutaxassislarga bo‘lgan talab yanada oshmoqda. Bu o‘z- o‘zidan o‘quvchilarimizning darslarga qiziqish xususiyatlarini oshirish va o‘qituvchilarning har tomonlama ta’lim-tarbiyasiga e’tiborini kuchaytirishni talab etadi [1].

ADABIYOTLAR SHARHI

Yuqoridagi talablarning ta’lim tizimi uchun juda muhim ekanligi, aksariyat xorijiy davlatlardagi kabi ta’lim va fan sohalari rivojlanishini baholash va monitoring qilish orqali ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan ilg‘or tajribalarni sohaga jalb qilish kerakligini anglatadi.

Axborot texnologiyalari - axborotni yig‘ish, saqlash, uzatish, o‘zlashtirish,qayta ishlash usul va vositalari yig‘indisidan iborat. O‘qitishning yangi axborot texnologiyasi deganda - faqat o‘quv tarbiya jarayoniga qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan eng yangi axborot texnologiyalari tushiniladi. Yangi axborot texnologiyalari - turli toifali foydalanuvchilar tomonidan EHM asosida axborot olish va qayta ishlash bo‘yicha xizmatlar bilan ta’minlashdan iborat [3].

Matematika darslarida AKT dan foydalanish uchun avvalo kompyuter

- Matn bilan ishlash - Microsoft Word
- Jadval bilan ishlash - Microsoft Excel
- Ma’lumotlar bazasi - Oracle, Microsoft SQL Server, MS-Access
- Prezentatsiya tayyorlash uchun dastur - Microsoft PowerPoint, Movie Maker
- Hujjatlarni kompyuter verskasi uchun tayyorlash - PageMaker
- Tasvirlar yaratish - Adobe Photoshop
- Animatsiyalar bilan ishlash - Flash
- Audio va video - Media Player

dasturlari va ulardan foydalanish yo‘llarini bilib olish zarur. Bu yesa kompyuter dasturlari nafaqat o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini shakllantirish, balki kompyuterni qo‘llash orqali ularning ijodiy ko‘nikmalarini rivojlanishiga ham yordam beradi [5].

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Keyingi o‘n yillikda matematika fanini o‘qitishda kompyuterlardan foydalanish bir necha asosiy yo‘nalishlarda olib borildi. Bularga kompyuter yordamida bilimni baholash, turli tipdagi o‘rgatuvchi dasturlarni ishlab chiqish va rivojlantirish, bilishga oid matematikaviy o‘yinlarni ishlab chiqish va boshqalar kiradi [5].

Matematika o‘qitishda kompyuterlarni qulayligini yana bir yo‘nalishi ayrim o‘quv holatlarini modellashtirishdir. Modellashtirilgan dasturlardan foydalanishning maqsadi, o‘qitishning boshqa usullari qo‘llanganda tasavvur qilish, ko‘z oldiga keltirilishi qiyin bo‘lgan materiallarni tushunarli bo‘lishini ta’minlashdan iborat. Modellashtirish yordamida o‘quvchilarga ma’lumotlarni grafik rejimda kompyuter multimediasi ko‘rinishida taqdim qilish mumkin. Shu boisdan ular matematikani chuqur o‘rganish va o‘quv jarayonida sezilarli darajada mustaqillik namoyon etishga moyil bo‘ladilar.

NATIJALAR

Quyida biz “Hosila” mavzusini o‘qitishda taqdimot slaydlarini tayyorlash bo‘yicha ba’zi mulohazalarni keltiramiz. Yangi mavzuni bayon qilishda avvalo tayanch iboralar bilan tanishtirish maqsadga muvofiqdir. Masalan, bitta slaydda 1) funksiya 2) hosila 3) differensial 4) o‘zgaruvchi 5) orttirma 6) urinma hamda ularning aralash tartibda ingliz tilidagi tarjimasi A) variable B) differential C) function D) secant E) derivative F) increment berilib, navbatdagi slaydda to‘g‘ri tartibda 1-C, 2-E, 3-B, 4-A, 5-F, 6-D kabi berilsa, talaba xotirasida bu tayanch iboralar hamda ularning ingliz tilidagi tarjimasi yaxshi saqlanadi. Odatda bu usulga “Sherigini top” usuli deyiladi. Hosila mavzusi bo‘yicha ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar o‘tishda funksiya hosilalari jadvalini esda saqlash muhim hisoblanadi. Bu jadval bitta slaydda o‘z aksini topsa talabalar ular yordamida misollar yechishida yaxshi samara beradi. Hosilaning geometrik ma’nosini tushuntirish jarayonida funksiya grafigiga urinma ko‘rinishini MAPLE dasturi orqali turli funksiyalarni va mos nuqtalarni tanlab ularga o‘tkazilgan urinmalar namoyish qilinsa talabalar uni tasavvur qilishi osonlashadi. “Hosila” mavzusining funksiyani hosila yordamida tekshirish qismini o‘qitishda uning o‘sish kamayish oraliqlarini, eng katta va eng kichik qiymatlarini topishda kompyuter dasturlaridan foydalanish talabalarda fanga nisbatan qiziqishni orttiradi.

XULOSA VA MUNOZARA

Xulosa o‘rnida shuni alohida ta’kidlash lozimki, bugungi tezkor davrda talaba yoshlarda mustaqil fiklash qobiliyatini oshirish, ularni o‘z ustida ko‘proq ishlashga jalb etish, ta’lim berish jarayonlarida AKTlardan ko‘proq foydalanish juda muhimdir. AKT talabalarni rag‘batlantiradi va ularning qiziqishlarini oshiradi. AKT talabalarni kelajakdagi faoliyatiga tayyorlashga ko‘mak beradi. Hozirgi zamonda mehnat faoliyati talabalar qoniqish bilan ishlayotgan kompyuterlar, texnologiyalar, dasturlar va qurilmalar yordamida boshqariladi. AKT XXI asrning yangi ta’lim berish vositasidir. AKT o‘rganish va o‘qitishning yangi imkoniyatlarini ochib beradi. AKT professor-o‘qituvchilarning kasbiy o‘sishi uchun ularga o‘z fanlari bo‘yicha o‘qitishning yangi usullarini kiritishga, yangi yondashuvlarni qo‘llashga, g‘oyalarni ro‘yobga chiqarish va yangi ko‘nikmalarni rivojlantirishga imkoniyat yaratadi. AKT darslarga tayyorgarlik jarayonini qisqartiradi va o‘qish jarayonitalabalar uchun qiziqarli bo‘ladi.

ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Boboeva M.N. “Nomanfiy butun sonlar to‘plami” mavzusini o‘qitishda ayrim interfaol metodlardan foydalanish. Scientific progress, 2:1 (2021), r. 53-60.

2. Mardanova F.Ya. Oliy ta’lim muassasalarida mustaqil ishlarni tashkil etish bo‘yicha tavsiyalar // Fan va ta’lim axborotnomasi, 95:17 (2020), 2-qism, 83-86-betlar.
3. Umarova U.U. Triz texnologiyasini "Taklif algebra formulalari uchun oddiy shakllar" mavzusiga qo'llash // Fan, texnologiya va ta'lim. 73:9 (2020), 32-35-betlar.
4. Sharipova R.T., Umarova U.U., Sharipova M.Sh., “Shartli ehtimollik, hodisalarning mustaqilligi” mavzusini o`rganishda “aqliy hujum” va “keys stadi” usullaridan foydalanish Ilmiy taraqqiyot, 2:1 (2021), r . 982-988.
5. Mardanova F.Ya. Buyuk ajdodlar ilmiy merosidan matematika darslarida foydalanish // Pedagogika muammolari. 51:6 (2020), 40-43-betlar.
6. Rasulov T.H., Rasulov X.R. O‘zgarishi chegaralangan funksiyalar bo‘limini o‘qitishga doir metodik tavsiyalar // Scientific progress, 2:1 (2021), r.559-567.
7. Boboeva M.N., Boboqulova S.B. Matematikaning birlamchi tushunchalarini kiritishda o‘yin elementlaridan foydalanish.Vestnik nauki i obrazovaniya. 99:2 (2020), 2-qism, 85-87-betlar
8. Рашидов, Д. (2023). Давлат-хусусий шерикликда таваккалчилик турлари. Scienceweb academic papers collection.

WORDLY
KNOWLEDGE